FARG‘ONA VILOYATI QUVASOY SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 16 - may 166-11-167-Q/22 Quvasoy shahar hokimligi

Yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-348-sonli *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda; 2015-y., 52-son, 645-modda)* qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, Quvasoy shahar IIB DYHXG raxbari V.Mamajonovning 2022-yil 7-aprel kungi Quvasoy shahar Mustaqillik ko‘chasining 2 km dan 2.5 km gacha bo‘lgan masofada 3.27 “To‘xtash ta’qiqlanadi” yo‘l belgisi hamda 2-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi oldidagi mavjud 5.16.2 “Piyodalar o‘tish joyi” yo‘l belgilariga qo‘shimcha 1.31 “Sun’iy notekislik” yo‘l belgilarini o‘rnatish maqsadida shahar hokimligining qaror loyihasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 613-sonli aloqa xati hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Quvasoy shahar IIB DYHXG raxbari V.Mamajonovning 2022-yil 7-aprel kungi Quvasoy shahar Mustaqillik ko‘chasining 2 km dan 2.5 km gacha bo‘lgan masofada 3.27 “To‘xtash ta’qiqlanadi” yo‘l belgisi hamda 2-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi oldidagi mavjud 5.16.2 “Piyodalar o‘tish joyi” yo‘l belgilariga qo‘shimcha 1.31 “Sun’iy notekislik” yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risidagi 613-sonli aloqa xati qanoatlantirilsin.

2. Quvasoy shahar Mustaqillik ko‘chasining 2 km dan 2.5 km gacha bo‘lgan masofada 3.27 “To‘xtash ta’qiqlanadi” yo‘l belgisi hamda 2-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi oldidagi mavjud 5.16.2 “Piyodalar o‘tish joyi” yo‘l belgilariga qo‘shimcha 1.31 “Sun’iy notekislik” yo‘l belgilarini o‘rnatilsin.

3. “Quvasoy yo‘llardan foydalanish” unitar korxonasi (Karimov)ga ushbu yo‘l belgilarini

o‘rnatish chorasini ko‘rsin.

4. Quvasoy shahar IIB YHXG (Mamajonov)ga transport vositalari va piyodalarning xavfsiz harakatlanishi uchun ushbu yo‘l belgilariga rioya qilinishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

5. Shahar hokimligi axborot xizmati Z.Abdullajonov, “Isfayram” ro‘znomasi muxarriri O‘.Karimovalarga mazkur qaror loyihasini shahar hokimligining “Isfayram” gazetasida nashr etilishini va shahar hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilishini tashkillashtirsin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Tursunbayev zimmasiga yuklatilsin.

7. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Shahar hokimi **Z.K.To'rakulov**